

2025-2026-o'quv yilida 11-sinf o'quvchilarining informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test varianti

II chorak 2-ChSB

Jami: [40 ball]

1.(Q) Moslikni toping

1) maxfiy kalit	a) bank xizmatlarining kompyuterlashtirilgan varianti
2) internet banking	b) deshifrlash uchun foydalaniladigan kalit
3) regressiya	c) qator o'zgaruvchilar asosida bashorat modelini yaratish

- A) 1-b; 2-a; 3-c;
B) 1-a; 2-c; 3-b;
C) 1-c; 2-b; 3-a
D) 1-b; 2-c; 3-a;

2.(Q) Quyidagi qatorlardan qaysi biri **onlayn banking xizmatlari bilan mos emas?**

- A) Kartalararo pul o'tkazmalari, mobil balans to'ldirish, internet-to'lovlar
B) Kredit to'lovlarini onlayn amalga oshirish, hisob raqamlari monitoringi, bank binosini ta'mirlash
C) Depozit hisobini ochish, tranzaksiya tarixini ko'rish, QR orqali to'lov
D) Avtomatik to'lovlarni sozlash, e-kvitansiyalarni olish, valyuta ayirboshlash

3.(Q) Quyidagi qaysi xususiyat **Bitcoin va klassik pul tizimi orasidagi asosiy farq hisoblanadi?**

- A) Bitcoin faqat fizik kartalar orqali ishlaydi
B) Bitcoin markaziy bank tomonidan chiqariladi
C) Bitcoin ancha katta darajada o'zgaradi va cheklangan miqdorda chiqariladi
D) Bitcoin uchun tranzaksiyalarni qayta o'zgartirish mumkin

4.(Q) Quyidagi metodlardan qaysi biri ma'lumotlarni intellektual tahlillash yo'llaridan biri bo'lgan **regressiyaga misol bo'ladi?**

- A) Uy narxini maydoni va xonalar soni asosida prognoz qilish
B) E-pochta spam yoki no-spam deb tasniflash
C) Mijozlarni yosh va daromad bo'yicha guruhlash
D) Tizimdagi noodatiy tranzaksiyalarni aniqlash

5.(Q) Quyidagi qaysi faoliyat **mikroblog yuritishga misol bo'lmaydi?**

- A) Fikrlar, yangiliklar va maslahatlarni qisqa postlar orqali ulashish
B) Kundalik voqealarni qisqa izohlar bilan bayon qilish
C) Uzun ilmiy maqola yozish va nashr qilish
D) Tezkor reklama va yangilik tarqatish



6.(Q) Quyidagi vaziyatlardan qaysi biri videokonferensiyaning **asosiy afzalliklarini** bir vaqtning o'zida ifodalaydi?

- A) Foydalanuvchilar o'zaro chat orqali muloqot qila olishi
- B) Internetga talabning ortishi, provayderlarning ko'payishi
- C) Qo'shimcha qurilmalar ixtiro qilinishi, texnik rivojlanish
- D) Uzoq masofadagi jamoa a'zolari bilan tezkor muloqot qilish va safar xarajatlarini kamaytirish

7.(B) Qaysi uskuna videokonferensiyaning o'tkazish uchun zarur bo'lgan uskunalar qatoriga kirmaydi?

- A) veb kamera, mikrofon, internet
- B) mikrafon, kamera, plotter
- C) konferensiya dasturiy ta'minoti, kompyuter, karnay
- D) veb kamera, quloqchin, konferensiya dasturiy ta'minoti

8.(M) Quyidagi variantlardan qaysi biri videokonferensiya va vebkonferensiya orasidagi farqlarni bir nechta vaziyatlar orqali to'g'ri ko'rsatadi?

- A) Videokonferensiyada yuqori sifatli video talablari mavjud; vebkonferensiya esa odatda veb-interfeys orqali ochilib, chat, fayl ulashish va ekran almashish kabi funksiyalarni keng qo'llab-quvvatlaydi
- B) Ikkalasi faqat video uchun mo'ljallangan, chat va fayl almashish funksiyalari mavjud emas
- C) Videokonferensiya internet orqali ishlaydi, vebkonferensiya esa internet talab qilmaydi
- D) Vebkonferensiya faqat audio qo'llaydi, videokonferensiya esa faqat video qo'llaydi

9.(B) Hawk-Eye tizimining tennisdagi asosiy vazifasi nima?

- A) O'yinchilar tezligini o'lchash
- B) To'pning maydondagi tushish nuqtasini aniq aniqlash
- C) O'yin davomiyligini belgilash
- D) Raqamli statistikani avtomatik tuzish

10.(M) Quyidagi mulohazalarni rostlikka tekshiring:

1. Modem raqamli signalni analog signalga aylantirishi mumkin.
 2. Repeater signalni kuchaytirib, tarmoq masofasini kengaytiradi.
 3. Firewall faqat apparat ko'rinishida bo'lishi mumkin.
- A) 1-rost; 2-rost; 3-yolg'on
 - B) 1-rost; 2-yolg'on; 3-yolg'on
 - C) 1-rost; 2-rost; 3-rost
 - D) 1-yolg'on ; 2-rost; 3-yolg'on

11.(Q) Wi-Fi tarmog'ida 2.4 GHz diapazoni haqida qaysi fikr to'g'ri?



- A) Tezligi yuqori, lekin qamrovi kichik
- B) Faqat sanoat qurilmalarida ishlatiladi
- C) Qamrovi keng, lekin shovqinlar ko'p bo'lishi mumkin
- D) 5 GHz bilan birga ishlay olmaydi

12.(B) NIC quyidagi qaysi manzil turini o'zida saqlaydi?

- A) IP manzil
- B) MAC manzil
- C) DNS manzil
- D) Gateway manzili

13.(Q) Qaysi holatda file serverga ehtiyoj ortadi?

- A) Faqat bir kompyuter ishlatilganda
- B) Printer ulanishi to'xtaganda
- C) Video karta ishlamay qolganda
- D) Bir nechta foydalanuvchi umumiy hujjatlar bilan ishlashi kerak bo'lganda

14.(Q) Quyidagi qurilmalardan qaysi biri infraqizil texnologiyadan foydalanadi?

- A) CD/DVD o'quvchi lazeri
- B) Televizion pultlar
- C) Mikroskoplar uchun lazer yo'li
- D) Lazer masofani o'lchagich

15.(Q) Qaysi kommutatsiya turi real vaqtli xizmatlar (masalan, ovozli aloqa) uchun eng ma'qul?

- A) Xabarli kommutatsiya
- B) Paketli kommutatsiya
- C) Kanalli kommutatsiya
- D) Hech biri



Javoblar:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	B	C	A	C	D	B	A	B	A	C	B	D	B	C

Baholash mezonlari:

(B) – Bilish, har bir to'g'ri javob uchun – 2 balldan, jami 6 ball;

(Q) – Qo'llash, har bir to'g'ri javob uchun – 2,4 balldan, jami 24 ball;

(M) – Mulohaza, har bir to'g'ri javob uchun – 5 balldan, jami 10 ball;

Jami: [40 ball]